



IBRATLIK HIKOYA

Tojimamatova Nilufar Obidjon qizi

Yoshim 25 bo'ldi uylanish zamonim ham keldi. Onam bir kun uylanish mavzusini ochti o'g'lim ko'z ostinga olgan qizin bormi? _ Soliha islomni yahshi tanigan bir qiz bo'lsin boshqa hech narsa kerak emas dedim. Yaqin qarimdoshimizni yon qoshnilari judayam dindor islomni yahshi tanigan oila va boyiga yetgan qizlari borligini aytishti. Bir kun habar berib onam bilan tanishuvga kettik birinchi bolib otasi blan gaplashdim tog'rirog'I ular gapirdi men faqat eshittim . Eshitganlarim qarshisida lol qoldim.Toyda eng taniqlik artistlarni honandalarni va eng katta hashamatlik to'yhonani zakaz qilarkanman yana qizlarini olib yurishim uchun yangi eng songi rusumdagi mashinam bolishi kerak ekan, chunki yon qoshnilarini kiyovi yangi mashina olibdi.Onamga turing kettik demoqchi boldim kattalarga hurmatimdan ohrigacha eshittim.meni qiz bilan korishishim uchun yondagi honaga olib kirishdi,qiz ham ikkita tillo zanjir ikkita bilakuzuk tilla uzuklar shu bilan birga eng qimmat baho kelin koylagi hohlayotgandi.Nima deyishni ham bilmay qoldim.Men shunchaki soliha bir turmushortog' hohlayotgandim holos. Istaganlari tugamastan yigirma minut tohtame sanadi,navbat menga keldi siz nimalar hohlaysiz ozi? ichimda;- ornimdan turib ketishni hohlayman deyotgandim.Lekin qizga qarab ikkimiz uchun ham OLLOH eng hayirlisini korsatsin dedim va hayirlashdim. Kelganimizga bir soat bolishiga qaramay dunyo moliga bog'liq bolgan insonlar bilan suhbatlashish ichimi rohatsizlantirgandi. Bir kun sonra amakim telfon qildi yon qoshnisi Farhot tog'ani qizi borligini yoshligidan ularni yahshi tanishligimizi aytib ertaga tanishish uchun kelishimizni hohladi.onam ham rozi bolgach,ertasiga Farhot tog'ani uyiga tayorlanib yolga chiqtik 15 minutda yetib bordik,gap yoshligimizdan ochildi meni maqtashga tushib ketti yoshliginda undegidin,yoshliginda bundegidig deb meni uyaltirdi.Farhot tog'a toy mavzusiga keldi.Og'lim seni yoshligindan beri juda yahshi koraman deb toy uchun hohlagan narsalarini sanashni boshladi shunchalik kop sanadiki uyqim kelishni boshladi,eng ohrida – meni og'limni qimordan qarzi bor uni to'lamasdan to'y ham bo'lmaydi deb gapini tugatdi.Qizni onasi oraga kirib yoshlar ko'rishsin endi deb meni qiz o'tirgan honaga olib kirdi,qiz salom bergandan kegin oldingi qizga ohshab to'y uchun hohlagan narsalarini sanab ketti gapini jiringlagan telfo'ni bo'ldi,ekranga qarab jahli chiqqandek uff tortib o'chirdi.Qiziqib so'radim telfon qilgan kim? Deb eski bo'lingan yigitiykan ayrilishganiga o'n kun bo'pti,nima uchun ayrilishganini so'radim ish joyimdagi



sherigim bilan kafeda choy ichyotgandik ko'rib rashk qildi. Men eshitganlarim qarshisida muzlab o'tirardim besh minut ichida qiz haqida bilmagan ko'p narsalarim borligini o'rgandim, boshqa chidayolmay o'rnimdan turib chiqib kettim. Men shunchaki soliha bir turmusho'rtog' hohlagandim holos. Oila qurishdan ancha ko'nglim sovib ketti. Onam, qo'ni qoshnilar, do'stlarim falon joyda qiz bor ekan desalar ham hech biri bilan qiziqmadim. Kechki payitlar ishdan kelib balko'nga chiqib kitob o'qirdim, men kitob o'qirgan yon balko'nda bir qiz kichkina ukasini o'ynatayotgandek chiqib men bilan salomlashib gaplashishga harakat qilardi. Bu har kuni takrorlanishni boshklagach qo'limga bir kitob oldim, bu Qiyomat va Ohirat kitobiydi. Men balko'nga chiqquncha qiz ham darrov chiqti, har kun qanaqa kitob o'qiysiz deb so'radi –kutgan vaqtim kelgandi, juda yahshi kitob, o'qishni hohlaysanmi- mayli o'qiyman bismilloh deb ikki uch metir uzoqdagi balko'nga kitobni otdim. O'qigan bo'lishi kerakki qaytib balko'nga chiqmadi. Uylanishdan vos kechgandim bir soliha juft halol toppish ertag kabiydi. Oradan oylar o'tgandi. Bir juma kechasiydi ichim nimagadur siqilyotgandi, bo'g'ilyotgandek his qildim ikki rakat namoz o'qib yottim. Ajoyib bir tush ko'rdim, bu tushni kimgadur aytishim kerak edi. Eng yaqin do'stim Ali ga telfon qilish uchun balkonga chiqdim, osmonda to'lin oy bor edi. Ali keldi bir kafeda o'tirib gaplashtik, unga ko'rgan tushimni anglatishni boshladim. CHangli, tuprog'lik bir qishlog'da ketayapman qo'limda bir qilich atrofimda to'lla ilonlar hammasi bir metrgacha boshlarini ko'tarib menga tashlanishga tayyor holda, menga tashlanganini o'ldirib qilich bilan o'zimni himoya qilib yurishda davom etdim, to'g'ridan yorug'lik ichida menga to'g'ri kelayotgan ikki kishini ko'rdim, biri payg'ambarimiz edi ikkinchisini tanimadim. Ali tushimni yo'rmlashni boshladi, dushmanlaringni yengip istagan mahsadinga yetishiga oz qoldi. Mavzu yana oyla qurishda ochildi. Boshimga kelganlarni hammasini aytip berdim. Meni juftim dunyo moliga bog'liq bo'masligi kerak. Ali dartlarimni uzun–uzun tingladi. Ali gap boshladi, do'stim bizni mahallada bir qiz bor ekan onam aytdi sen bilan ko'rishtirsak yoq Ali boshqa hechkim bilan ko'rishishni hohlamayman, _ha shundoq ham qiz hechkim bilan ko'rishishni hohlamayotkan ekan onam majburlaguncha mayli depti. Nimaga? Dep so'radim u ham senga o'hshap ikki-uch kishi bilan ko'rishib hechkim kimga rozilik bermayotgan ekan deguncha qiziqib qoldi. Ertasiga ko'rishishga boorish uchun so'zlashtik. Ajabo tushim o'ngi danmi kelayotgan edi. Shu vaqitgacha sabir bilan oldimga chiqqan sino'vlarni yengib kelayotgan edim. Onam bilan gaplashdim. Ertalabdan hayajon bilan uyg'ondim. Birichi marta bunchanlik hayajonlikdim. Peshin nomozidan so'ng yo'lga chiqdik. Ali bizni olib bordi, eshikni dadasi ochdi, biroz gaplashgandan so'ng o'g'lim meni



aytadigon hech gapim yo'q bu mavzularni sen qizim bilan gaplash u nima disa shu dedi_ hayron bo'ldim chunki bunaqasi birinchi martta boshimga kelishi. Qiz bilan ko'rishish uchun bir honaga kirdim,sto'lga o'tirdim nimagadur hayajonlanib kaftim terlab artish uchun ro'molchamni oldim,u orada qiz kirib keldi. Nuroniy oy zuylik bir qiz menga hech qaramasdan faqat yerga qarab gapirishni boshladi, boshqa qizlarga o'hshab to'ydan taqinchoqlardan kirmadi mavzuga birinchi savoli namoz bo'ldi,menga namoz o'qiysizmi demadi namozlardi nechchi daqiqada o'qishimni so'radi. Peshin namozimni o'n besh minutta o'qishimni aytdim hursan bo'ldi.Kegin to'plagan qancha puliz bor deguncha oldingi qizlardek narsa hohlashni boshlaydi deb hayolimdan o'tgazdim, qirqbesh milyoncha bor pullarni zakotini berasizmi deguncha noto'g'ri tushunganimni angladim,albatta beraman, gapida davom etti sizdan oldin uch kishi bilan ko'rishtim hammasi juda boy, pullariga ishongan dunyo moliga bog'liq insonlar dinimizga oid hich narsani bilishmasti,hatto namoz oqishmasti.Sizga birinchi savolim namozdan boldi chunki namoz o'qigan insondan zarar kelmas,oilasini haqqini qo'rir,haqsizlik qilmas, namoz o'qigan insonni butun mahluqot sevar, mahluqot sevganni esa Olloh sevadi.Kegin esa zakotni so'radim chunki u pulda muhtojlarni haqqi bor. Muhtojlarni haqqini yemagan oilasini ham haqqini yemas,olloh undan doim rozi bo'ladi. Shunchalik to'g'ri gapirayotgandiki.Dunyolik hich narsa hohlamayman deb yonidagi kitob javonni ko'rsatti,juda hursand bo'ldim chunki ichida men o'qigan kitoblarham bor edi. Meni qizga beradigon hechqanday savolim qolmagandi.Men so'ramasdan hamma savollarimga javob berib bo'gandi.Eng ohirgi istagi onam bilan gaplashish bo'ldi.Tashqariga chiqish uchun o'rnimdan turganimda qo'limdagi ro'molcham tushib ketdi uyalganimdan egilib ololmadim.Onam bilan o'n daqiqa qadar gaplashishdi.Hayirlashib uydan chiqtik ikki taraf ham bir biridan mamnun qolgandi.Onamdan qiz bilan nimalar gaplashishganini so'radim, ota-onamga qanaqa munosabatda bo'lishimni so'rabdi chunki ota-ona rozi bo'lmagan insondan Olloh rozi bo'lmasdi. Uyga kelguncha ikki rakat shukur namozi o'qidim, aqlimga ikki kun oldin ko'rgan tushim keldi,qo'limdagi sabir qilichim bilan qiyinchiliklarni yengib maqsadimga erishgandim.Bu kundan so'ng to'yga tayorgarliklar boshlangandi, qarimdoshlar to'planib to'y maslahatiga kelishganda to'y kata sanatkorsiz bo'lmaydi mazza qilib o'ynaymiz deb turib olishdi.Men to'y dinimizga mos maruzalik o'tishini hohlayotgandim,qanchalik buni horam ekanligini tushuntirsam ham ular o'ynamasdan to'y bo'ladimi deyishardi,mayli bir shartimni qabul etsangiz roziman dedim, hamma menga qaradi,o'lganimda men bilan mozorimga kirib meni o'rnimga javob beradigan bor bo'lsa roziman,hamma jimjit shundek qilib bu mavzu



ham yopildi. Bir kunga kelishib kelin taraf bilan bozorlik qilgani chiqtik. Qiz yonimda hizmatkorimdek boshini egib turardi, men nimani ko'rsatsam bo'ladi yoqtirdim der edi, bir inson buqadar kamtar, buqadar tushunchalik bo'lishi mumkinmidi. U ha bo'laveradi deguncha men eng qimmat eng sifatlisini olishga harakat qilayotgandim chunki uni hursand qilish uchun qo'limdan kelganini qilishga harakat qilardim. Uyimizni hamma mebel va gilamlar bilan to'ldirdik. Hammasi juda chiroylik ketayotgandi, mana to'y kuni ham keldi. To'y huddi men hohlagandek ayollar boshqa zalda erkaklar boshqa zalda mavlud o'qilgan holda hammani mehmon qildik. Turmushimizni ilk yillari boshqa juftlarga o'hshab tushunmovchiliklar bilan o'tmasdi chunki biz Islomni atrofida birlashgandik. Hich qanday muommomiz yoq edi. Turmish o'rtog'imni zakosiga, go'zal hulqiga, kular yuziga oshiqdim, ishda bo'sh qolguncha telfo'n qilar, ishdan chiqquncha tez uyga kelishga harakat qilar edim. Uni go'zal ko'zlarini ko'rguncha, shiralik ovozi eshitguncha ichimni sokinlashtirgan bir narsa bor edi. Uyga kelguncha kular yuzini ko'rib hamma charchog'im chiqib ketardi. Orada bir moshinam bilan aylashga chiqardik, yana bir kun aylangani chiqish uchun moshinamga minganimizda menga qarab sabr qilish juda go'zaldur sabr insonni shu mashinaga o'hshab hohlagan manziliga yetgazadi dedi. Bu gaplarni nimaga aytganini tushunmagandim. Bir ikki kun oldin yotog' honamizni eshigi buzilib quliflamaguncha ochilib ketayotgandi, kechalari ayolimni ko'ngli tez-tez aynib chiqayotgandi, bu kecha ham ko'ngli aynigan bo'lsa kerak o'rnidan turdi men turganini bilib uyg'ondim, u uyg'onganini bilmasdan eshikka to'g'ri yurdi, meni uyg'otmaslik uchun qulif bo'lgan eshikni ochmasdan bismilloh deb tashqariga chiqdi, ko'zlarimga ishonolmadim harholda uyqisiradim deb tushunib turgandim ayolim yana bismilloh deb ichkariga kirdi, men yotog'da turib o'tirdim nima bo'lganini tushunishga harakat qilayotgandim, ayolimni yuzida esa nurlar yog'ilib turardi, kulib menga qarab uyg'otib yubordimmi deb so'radi, nima deyishni ham bilmay qoldim yo'q chiqqanigni eshitmadim ham dedim kulib qaradi va yotib uhladi. Ertasiga ishga ketganimda kechgacha bo'lgan voqeani tushundim, uyga borganda bu mavzuni so'rab gaplashishga qaror qilgandim. Oqshom uyga kelib zvano'kni bosmadim o'zimni kalitim bilan ochib kirdim, kirishim bilan qarshimda ayolim menga qarab kulib turardi. Ovqati tayyor ekan ovqatlanishga o'tirdik, bugun nimadandur hafamisiz deb so'radi, kechagi mavzuni qanday so'rashni bilmadim ozgina charchaganimni aytdim. Sizni hursand qiladigon bir gap aytaman deb qollarimdan ushlab o'rnimdan turgazdi ko'zlariga qarab nima gap ekanligini so'radim men homiladorman deguncha hursandlikdan baqirib yubordim, takror ayolimni yuziga



qaraganimda uyalib yuzini olibqochti. Aqlimdagi hamma narsalarni unutgandim, men dada bo'layotgandim. Ishdan kelayotganda bebek uchun har-hil narsalar olishni boshladim. Kechki payitlar ayolim bilan hayollar qurardik, farzandimiz kitob o'qish yoshiga kelganida birinchi bo'lib qaysi kitobni o'qishini tortishardik. Birinchi bo'lib namoz kitobini o'qishi kerak, undan kegin islom ahloqini yoki hammaga kerak bo'lgan iymon kitobini o'qitsag... yo'q yo'q birinchi halifalarni hayotlaridan o'qitib ko'nglini yashnatishimiz kerak. Meni farzandim islomni qalbi bilan yashaydigan va islomni yoyishga harakat qiladigan inson bo'lishi kerak edi. Har kun oqshomlari ayolim bilan Imoniy Robbiy ning maktubotlarini o'qiyotgandik, bir kun o'qiyotib ko'zlarim charchab ayolimga o'qishini iltimos qildim, u o'qishni boshlaguncha ko'zlarimni yumib eshitishni boshladim 212 chi maktubni o'qiyotgandi 15 daqiqacha eshitgandan song ko'zlarimni ochganimda kitobni ochmasdan yoddan o'qiyotganini ko'rdim, maktubni bitirguncha buni nechchi marta o'q'ganini so'radim. Bilmadim juda ko'p deb javob berdi. Bu kitobni qancha vaqitda o'qib bitirishini so'radim, bir haftada deb javob berdi. Tushundimki ayolim manaviy darajalarga yuksalgan biri ydi. U kun ham eshikni ochmasdan tashqariga chiqishi bir karomatdi. U kundan so'ng ayolimga hurmatim yanada ortdi. Ayolim bir avliyo edi. Kitob o'qib tushunmagan joylarimni so'rardim, shunchalik go'zal anglatib tushuntirib berardiki hayronlik bilan eshitardim. Ayolimni hech hafa yoki nolirkan ko'rmadim. Har holiga sabr va shukur qilayotgani shundoq ko'rinib turardi. Islomiyatni ohirigacha his qilib yashayotgan namuna bor edi qarshimda. Buning uchun Ollohga ming kara shukur qilsamham oz qolardi. Ayolimni yana bir ikki fazilatlarini ko'rgandan kegin so'ramoqchi bo'ldim. Hayajon bilan gap boshladim, islomiyatni eng kichik qoidalariga ham amal qilib yashaysan degunimcha ayolim gapimni bo'lib sabir eng yahshi amaldur, sabr qilarkan shukur qilish yanayam go'zaldur dedi. Inson har holiga shukur qilsa Olloh unga yanada go'zallarini ehson qiladi deb o'rnidan turdi. Men ham boshqa bu mavzularni ochmadim. Oradan oylar o'tib o'g'lim dunyoga kelgandi, hayotimizdan judaham mamnun edik. Oqshomlari kitob o'qishda davom etayotgandik, u mendan ko'p narsani bilganligi uchun uni ustozim deb chaqirishni boshlagandim. chunki undan juda ko'p narsalarni o'rgandim. Ustozim dunyo va ohirat uchun eng kata sababim edi. Qo'limdan kelgancha bolani qarashda yordam berishda harakat qilardim. Kechasilari yeg'lasa ayolim uyg'onmasin deb boshqa honaga olib chiqib qarardim. O'g'limiz ikki yoshga kirganda ayolim og'rishni boshladi ko'p kunlarimiz kasalhonada o'tayotgandi, meni esa qo'limdan hech narsa kelmasdi. Ayolim bu holi bilan ham sabr va shukur qilishimizni aytib turardi. Bir kun ishdan uyga kelganimda



eshikni ochmadi kalitim bilan ochib ichkariga kirdim, uydan shunaqangi mukammal yoqimlik hid taralayotgandi. Honaga kirganimda namoz o'qib sajda qilayotgan ayolimni ko'rdim, eshikni namoz o'qiyotgani uchun ochmagan deb bitirishini kutdim, namoz hech tugamadi boshini sajdadan olmasdi yoniga borib qo'lidan ushlaganimda sovuqdi u on vafot etganini angladim. Dunyom boshimga yeqildi, ko'zimi oldi qorong'ulashib yeqildim, ko'zlarimdan yoshlar oqishni boshladi. Ichim yonib –yonib onamga telfon qilib tez kelishini hohladim. Ertasi kun dafn ettik uydan kelayotgan u shirin hid mazordan ham kelishni boshladi. Honasiga har kirganimda u hidni olardim, kira olmasdim uni juda sog'inayotgandim, jonim ayolim, ustozim vafot etgandi. Uni aytganini qilib sabr qilishga harakat qilayotgandim. Oylar o'tib jasoratimni to'plab honasiga kirdim chidolmadim yeg'lab yubordim, balko'nga chiqtim osmonda to'lin oy bor edi. Ali bilan gaplashgan kunim aqlimga keldi u kecha ham tolin oy chiqqan edi. Ko'zlarimda yosh bilan ustozimni mozoriga kettim sohotlarcha yeg'ladim, orqamdan bir qo'l yelkamni ushladi, orqamga qaraganimda ayolim nurlar ichida sabir qil deganini eshitdim va boshim aylanib yeqildim. Uyg'onganimda bamdod azoni o'qilayotgandi. Masjidga borib namozimni o'qigandan so'ng tashqariga chiqarkan chontagimda bir narsa borligini his qildim, bir ro'molcha bor edi ... ha o'sha ayolim bilan ilk tanishuvga borganda hayajondan qo'limdan tushgan ro'molcham. Jonim ayolim olib saqlagan ekan. U yoqimlk mukammal hid ortiq ro'molchamdan kelayotgandi.